

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Ijtimoiy-Iqtisodiy fakul'teti

303-gurux talabasi

Karimberdiyev Muhiddinning

«O'zbekiston tarixi»

fanidan tayyorlagan

Referati

TOPSHIRDI :
QABUL QILDI :

Karimberdiyev M.
Mamadaliyev X.

Mavzu: Qarshi XX asrda

Reja:

- 1. XX asrda Qarshining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti**
- 2. Qarshi 1986-1991-yillarda**
- 3. XX asrda Qarshida o`tkazilgan islohotlar**

Qarshi XX asrda

Qarshi XX asr boshida Buxoro amirligining muhim siyosiy va ma'muriy markazlaridan biri bo'lib, 27 viloyati qatorida 10 ta tuman - amlokdan iborat edi. Qashqadaryo vohasida temir yo'l qurilishi Qarshi shahri taraqqiyotini ancha tezlashtirib yuboradi. 1913-1915 yillarda Kogon (Yangi Buxoro) - Amudaryo, Qarshi - Kitob (Shaxrisabz) temir yo'li, foydalanishga topshiriladi. Chunki Chor hukumati bundan bevosita manfaatdor edi.

XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida yuz bergan shiddatli siyosiy va harbiy jarayonlar Buxoro amirligi, xususan, Qarshi vohasi hayotini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Bu hodisalar, bir tomondan, asrlar davomida hukm surib kelgan an'analar va turmush tarzini larzaga keltirib, ularni izdan chiqargan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyat taraqqiyotini yangi yo'nalishga burib yubordi. 1920 yil 12 avgustda bolsheviklar amirlikni tugatish maqsadida Samarqand - Buxoro frontini tuzadi. 1920 yil 21 avgustda Turkiston fronti qo'mondoni RSFSR harbiy ishlar xalq komissari nomiga telegramma yo'llab, Buxoroni bosib olishga hamma narsa tayyor ekanini ma'lum qilganida, RSFSR milliy ishlar xalq komissari I. Stalin bu telegrammaga «Zudlik bilan harakat qiling», deb rezolyutsiya qo'yadi.

Qizil armiyaning Turkiston frontiga qarashli Samarqand guruhi Qarshi va G'uzorni 1920 yil sentabr oyi boshlarida bu shaharlarni egallaydi. Qarshi va uning atroflarida 1920 yil oxiridan boshlab Qizil armiyaga qarshi janglar boshlanadi. Bolsheviklar va Qizil armiya qo'mondonligi bu kurashda qabih va jirkanch usullardan keng foydalangan, bu bilan ham cheklanmasdan tinch aholini qatag'on qilgan. 1920 yil kuzida BXSrda dastlabki ma'muriy-hududiy bo'linish o'tkazilib, u viloyatlar, tumanlar, kentlar, amlok va qishloqlarga ajratilgan edi. Qarshi vohasida 3 ta viloyat (Behbudiy, G'uzor va Shahrisabz) tashkil qilingan. Qarshi viloyatiga Beshkent, Koson, Chim tumanlari kirgan. yil so'ngida O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi natijasida Buxoro respublikasi tugatiladi. Uning hududi, jumladan, Behbudiy va Shahrisabz viloyatlari (Qashqadaryo okrugi) yangi tashkil etilgan O'zbekiston SSR (Uz SSR) tarkibiga kiritiladi. O'zbekiston SSRda ma'muriy bo'linish tadbirlari o'tkazilishi natijasida

Qashqadaryo viloyati Uz SSRda tuzilgan dastlabki 7 ta viloyatning bittasi bo'lib qoladi.

O'zSSRda ma'muriy-hududiy o'zgarishlar keyinchalik ham davom etgan. 1930 yil 17 avgustda okruglar bekor qilinadi. Biroq 1935 yil fevralda Qashqadaryo okrugi qayta tiklanadi. 1938-1943 yillarda Qashqadaryo vohasi Buxoro viloyati tarkibida bo'lgan. 1943 yil 20 yanvarda Qashqadaryo viloyati (markazi - Qarshi shahri) taxminan hozirgi chegarasida tashkil qilinadi. 1960 yil 25 yanvarda u Surxondaryo viloyati tarkibiga qo'shilgan. Qashqadaryo viloyati 1964 yil 7 fevralda qayta tashkil qilingan. 1927-1929 yillarda Qashqadaryo okrugida yersuv islohoti amalga oshirilgan. Bu jarayonda sovet hukumati o'ziga to'q dehqonlarni «quloq» sifatida badarg'a qilish uchun zamin tayyorlagan. Qarshi va uning atroflarida yashovchi o'ziga to'q va o'rtahol dehqonlarning aksariyati ushbu qatag'onlarning qurboni bo'ldi. Qarshilik dehqonlar bunday sharoitda aksariyat hollarda sovet tuzumiga qarshi stixiyali ravishda norozilik bildiradi. Masalan, 1928-1930 yillarda Qashqadaryo okrugida 48 marta (1929 yilda 42 marta) dehqonlarning ommaviy norozilik g'alayonlari ko'tarilgan.

Qarshi shahri Qashqadaryo vohasi va viloyat markazi sifatida XX asrning 30-yillaridan boshlab xo'jalik yuritishning sotsialistik uslubi, rejali tizim hamda qattiq markazlashtirilgan xalq xo'jaligi boshqaruvi negizida rivojlandi. Ikkinchi jahon urushi Qashqadaryo vohasi, jumladan, Qarshi shahri taraqqiyotining bir maromdagi rivojlanishiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Butun mamlakatda bo'lgani singari bu yerda ham xalq xo'jaligi harbiy izga solindi va u urush manfaatlariga bo'ysundirildi. Urush yillari Qarshida asosan yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari faoliyat ko'rsatdi. Qarshi tikuvchilik fabrikasi harakatdagi armiya jangchilari uchun turli issiq kiyimlar va harbiy davr ehtiyoji uchun zarur bo'lgan boshqa mahsulotlar ham ishlab chiqardi. Shuningdek, bu paytda Qarshiga SSSRning markaziy rayonlaridan ayrim sanoat korxonalari ko'chirib keltirildi va yangi zavod-fabrikalar, jumladan, Qarshi un kombinati (1942) va boshqalar qurildi.

Qarshi va uning atroflarida tug'ilib o'sgan minglab yigitlar Ikkinchi jahon urushi janggohlarida fashizmga qarshi janglarda Moskva atrofi va

Stalingradda, Ukraina va Belorussiyada, Sharqiy Yevropa davlatlari va Germaniyada, shuningdek, Uzoq Sharqda bevosita qatnashdi. Umuman, Qashqadaryo viloyatidan 98069 kishi urushda ishtirok etgan. Ularning ko'pchiligi fashizmga karshi janglarda halok bo'ldi. SHo'ro hukumati Qarshi vohasida kishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortgani sayin XX asrning 50-60-yillarida shaharda sut-yog' kombinati (1954), yog'-yekstraksiya zavodi (1955), paxta tozalash zavodi (1955), Qarshi motor remonti zavodi, keyinchalik panelli kurilish materiallari kombinati kabi sanoat korxonalarini barpo etdi.

XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston sanoati va qishlok xo'jaligi yanada ko'proq Markaz manfaatlariga bo'ysundirildi. Paxta, pilla, qorako'l teri kabi birlamchi xom ashyo, sabzavot va poliz mahsulotlari, xo'l meva SSSRning markaziy rayonlariga muntazam ravishda jo'natiladigan bo'ldi. Qarshi shaxri yaqinidan SHo'rtan, Kultak, Zevarda, O'rtabuloq, Pomuq, Qoraxitoy singari yirik tabiiy gaz konlari, Janubiy Muborak va Shimoliy Muborak gaz kondensat konlari, Ko'kdumaloq neft-gaz kondensat koni (1985) kabi yirik zaxiralarga ega konlar topildi va foydalanishga topshirildi, olingan mahsulot respublikadan chetga olib ketila boshladi. Viloyat markazi Qarshi ana shunday yirik tabiiy gaz konlari yaqinida joylashganiga qaramasdan, bu davrda shahar sanoati bir yoqlama rivojlangan. Qarshida asosan qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlovchi hamda oziq-ovqat vayengil sanoat korxonalari bo'lgan, xolos. XX asrning 70-yillari oxirida Qarshida qariyb 100 ming aholi yashagan. Shahar aholisi keyinchalik tez ko'paygan. Bu paytda shahar ahli havo, temir yo'l, avtomobil transporti orqali O'zbekistonning markazi - Toshkent va boshqa shaharlar bilan bog'langan.

Qarshi sovet tuzumi davrida, aniqrog'i, o'tgan asrning 80-yillari oxirigacha asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo'naltirilgan, iqtisodiy jihatdan biryoqlama hamda viloyat miqyosidagi shahar darajasida qolib ketgan. Ijtimoiy sohada, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimida hal qilinmagan talay muammolar uzoq yillar davomida saqlanib kelgan. Markaz tomonidan o'ylab topilgan, aslida sho'ro tuzumiga xos ommaviy qatag'onlarning davomi bo'lgan «paxta ishi», «o'zbeklar ishi» kabi soxta kampaniyalar natijasida butun

O'zbekistonda bo'lgani singari Qashqadaryo viloyatida ham ko'plab o'z ishining ko'zini bilgan mutaxassislar, rahbarlar qatag'on qilindi. Qarshi vohasida tub iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazish muqarrarlari aniq bo'lib qolgan, jiddiy o'zgarishlar qilish zarurati tug'ilgan edi. Ana shunday murakkab bir pallada Qashqadaryo viloyati rahbari lavozimiga Islom Karimov saylandi. O'zining 2700 yillik tarixi davomida ko'plab voqealarning guvohi bo'lgan Qarshining rivojlanish jarayonida, uning tom ma'nodagi zamonaviy shaharga aylanishida Islom Karimovning xizmatlari beqiyos. Islom Karimov viloyat rahbari sifatida ish boshlagan 1986 yilda Qarshi shahrining me'moriy qiyofasi na shaharsozlik talablariga, na Qashqadaryo vohasining necha ming yillik tarixi va o'sha davrdagi iqtisodiy salohiyatiga mos kellar edi. Shaharning umumiy manzarasini belgilaydigan me'moriy obyektlar bir xil andozadagi ko'p qavatli ko'rimsiz panelli binolar, xom g'isht yoki paxsadan qurilgan pastqam uylardan iborat edi. Uning markaziy ko'chasini hisobga olmaganda, barcha yo'llar egri-bugri va notekis, transport qatnovi uchun yaroqsiz bo'lib yotardi. Aholi tez sur'atlar bilan o'sayotgan bo'lishiga qaramay, tegishli ijtimoiy infratuzilmalar yaratish e'tibordan chetda qolib ketgan edi. Respublika bo'yicha eng ko'p, ya'ni 600 ming tonna paxta xom ashyosi yetkazib beradigan, turli tabiiy va mineral zaxiralarga nihoyatda boy katta bir viloyatning markazida talab darajasidagi zamonaviy maishiy xizmat, madaniyat va sport inshootlari, istirohat bog'lari, bozorlar barmoq bilan sanaydigan holda edi.

Yangi rahbarning qat'iy pozitsiyasi, vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartishga qaratilgan izchil sa'y-harakatlari eng avvalo viloyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, «paxta ishi» degan soxta ayblov bilan nohaq jazoga tortilgan ming-minglab begunoh odamlarga nisbatan adolatni tiklash masalasida yaqqol namoyon bo'ldi. Viloyat rahbarining ana shunday dadil harakatlari tufayli qanchadan-qancha insonlar o'z oilasi bag'riga qaytdi, odamlarda umid va ishonch tuyg'ulari paydo bo'ldi. Butun voha hayotidagi o'zgarishlar, ishga va hayotga munosabat dastlab viloyat markazidagi yangilanishlarda ko'zga tashlana boshladi. Shaharda 3-4 yil burun to'xtab qolgan obodonlashtirish ishlari ilgari ko'rilmagan ko'lam va sur'atda davom ettirildi. Datsavval daraxtlar va bog'-rog'larni

ko'paytirish, odamlarning shaxsiy xo'jaligini rivojlantirish uchun shaharga oqar suv keltirildi. Shu tariqa bu yerdagi bog' va xiyobonlar, ko'kalamzorlar yozga borib suvsizlikdan qurib qolmaydigan bo'ldi. Bamisoli Qarshiga yangi hayot nafasi ufurdi.

Qarshi shahri va tumanlarda qurilish ishlarining bosh reja asosida olib borilishi alohida diqqat markazida bo'ldi. Shuning uchun ham 1987-1989 yillarda Qarshi shahri va tuman markazlarining yangi bosh rejalari ishlab chiqildi. Unda turar joy binolari, sanoat korxonalari, ma'muriy binolar qurilishi bilan bir qatorda ijtimoiy infratizim inshootlarini bunyod etish, aholi uchun zarur qulayliklarni yaratish, kommunal xizmatlar sifatini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor karatildi. Bu bosh rejalarda zamonaviy talablarga javob beradigan yangicha kontsepsiya o'z aksini topdi.

Shu davr mobaynida viloyatda, jumladan, sog'liqni saqlash tizimida ham katta ishlar kilindi. Ko'pni ko'rgan, shu voqealarning guvohi bo'lgan oqsoqollarning aytishicha, bu sohada 2-3 yil ichida kamida 15-20 yillik ish amalga oshirilgan. Usha yillari viloyat bo'yicha jami 44 ta yangi davolash-profilaktika muassasasi qurilgani bu boradagi ishlarning salmog'i haqiqatan ham katta ekanini ko'rsatadi. Shaharda bolalar va kattalar uchun yangi poliklinikalar, sanatoriy-profilaktoriylar, ixtisoslashgan kasalxonalar barpo etildi. Ilgari faoliyat ko'rsatib kelgan shifo maskanlari esa kengaytirildi, ta'mirlanib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Masalan, 120 o'rinli ko'z kasalliklari shifoxonasi, har smenada 480 nafar bolani qabul qila oladigan bolalar poliklinikasi, 150 bemorga xizmat ko'rsatadigan sil kasalliklari dispanseri, ruhiy-asab kasalliklari dispanserining 60 o'rinlik qo'shimcha korpusi va boshqa tibbiyot maskanlari kurilishi shular jumlasidandir.

Viloyat markazidagi Agrosanoat birlashmasining muhtasham binosi negizida har smenada 500 kishini tekshiruvdan o'tkazadigan diagnostika markazi tashkil etildi. Ushbu diagnostika markaziga bundan qariyb 20 yil muqaddam qiymati bir necha million AQSH dollariga teng bo'lgan zamonaviy kompyuterli tomograf va boshqa ko'plab zamonaviy tibbiyot uskunalari olib kelib o'rnatilgani

ayniqsa e'tiborga sazovordir. Islom Karimov bunday katta ishlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida respublika vazirlik va idoralari mablag'larini imkon qadar shunday zarur va ulkan loyihalarni amalga oshirishga jalb etishga harakat qildi. Shu bois Davlat plan komitetining mutaxassislarini viloyatga taklif qilib, Qashqadaryoning ijtimoiy infratuzilmasi bilan yaqindan tanishtirdi va bu borada qo'shimcha mablag' va amaliy yordam zarurligiga ularni ishontirdi.

Viloyat rahbarining jonkuyarligi, kechayu kunduz odamlar dardi bilan yashashi tufayli qurilishlar keng ko'lam kasb etdi. Natijada zamonaviy maktab va bog'chalar, bolalar itsirohat bog'i, «Oltin xo'rozcha» bolalar qahvaxonasi, ko'plab muzqaymoq va yaxna ichimliklar do'konlari, «Bolalar dunyosi» magazini kabi bir qator binolar qurilib, foydalanishga topshirildi. Islom Karimov rahbar sifatida ish boshlagan dastlabki yilning o'zidayoq birgina Qarshi shahrining o'zida zamonaviy bozor, mebellar uyi, yoshlar markazi, 4 ta qahvaxona, 9 ta do'kon, 21 ming kvadrat metr turarjoy binolari, madaniyat va istirohat bog'lari, maktab va sport majmualari, hunarmandlik ustaxonalari, keng va ravon ko'chalar, yangi dahalar barpo etilgan. Viloyatda 1987-89 yillarda kapital qurilish borasida ham salmoqli ishlar qilindi. Bu sohaga yo'naltirilgan mablag'ning umumiy hajmi 1982-85 yillarga nisbatan 3-4 baravar o'sdi va viloyatda bu yo'nalishda zarur moddiy-texnikaviy imkoniyatlar yaratildi.

Shahardagi tor ko'chalar qayta qurilib, kengaytirildi. Bugungi Amir Temur va Shibayev nomidagi ko'chalarni obodonlashtirish ishlari o'sha davrda boshlangan edi. Ayni paytda shahardagi ayeroport va temir yo'l vokzali binolari tubdan qayta ta'mirlandi, yangi avtovokzal barpo etildi. Qarshi shahrida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari sharafiga barpo etilayotgan, ammo sobiq rahbarlarning beparvoligi va mas'uliyatsizligi sababli qurilishi to'xtab qolgan «Shuhrat qo'rg'oni» yangi loyiha asosida davom ettirilib, nihoyasiga yetkazildi. Shahardagi yangi bozor va ilgari dehqon bozorlari ham Islom Karimovning tashabbusi bilan rekonstruksiya kilindi. Yangitdan barpo etilgan «Qarshi», «Nuroni», «Nasaf» kabi qulay va shinam choyxonalar shaharga uzukka ko'z qo'ygandek yarashib tushdi.

Ma'lumki, sportga e'tibor Islom Karimov faoliyatida hamisha muhim o'rin tutib, utsuvor sohalardan biri bo'lib kelmoqda. Aynan uning tashabbusi bilan o'sha yillari Qarshi shahrida suzish basseynlari, tennis kortlari, o'nlab sport maydonchalari bunyod etildi. Usha yillari qurilgan ikkita sport zali, suzish basseyni, bir nechta mashg'ulot zallari va davolash profilaktika xonalarini o'z ichiga olgan sport-sog'lomlashtirish majmuasi bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, aholini, ayniqsa, bolalarni sportga qiziqtirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tamoyillarini qaror toptirish uchun ko'p qavatli uylar oldidagi sport maydonchalari tartibga keltirildi, uyerlarga zarur jihozlar o'rnatildi. Shuni ta'kidlash joizki, Qarshi shahrini obodonlashtirish jarayonida o'zida milliy an'analar bilan bir qatorda zamonaviy me'morlik uslublarini aks ettiruvchi binolar kurilishiga katta e'tibor berildi.

Sobiq SSSR bo'ylab inqiroz tobora kuchayib, barcha sohalar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar pasayib borayotgan bir paytda Qarshi shahridagi sanoat korxonalarida ham ishlab chiqarish sur'ati pasayib ketayotgan edi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati ham talabga javob bermasdi. Masalan, 1986 yilda Qarshi tikuvchilik birlashmasida tayyorlangan ko'ylaklarning 35 foizi sifatsiz ekani aniklandi. Vujudga kelgan vaziyatni yaxshilash uchun yangicha sharoitda ishlaydigan korxona rahbarlari, injener-texnik xodimlar va xizmatchilarni qayta tayyorlash, mehnat samaradorligini oshirish, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash, xo'jalik hisobida ish yuritish tamoyillarini joriy etish lozim edi. Shuning uchun ham Qarshi shahrida, tumanlar markazlarida, har bir korxona va xo'jalikda muntazam iqtisodiy va kasb o'quv kurslari tashkil qilindi. Tarmoqlar, yirik korxonalar rahbarlari uchun esa viloyat partiya qo'mitasida alohida o'quv mashg'ulotlari olib borildi.

Mamlakatning hamma joyida mavjud sanoat korxonalari to'xtab qolayotgan bir paytda buyerda yangi «Termoplats» zavodi barpo etilib, ishga tushirildi. Bu korxonada respublika xalq xo'jaligi uchun o'ta zarur bo'lgan turli hajmdagi quvurlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, shaharda issiq iqlimli Qashqadaryo zamini uchun juda muhim bo'lgan yaxna ichimliklar zavodi ishga tushirilib, mahsulot bera boshladi. Shular qatorida uy-joy qurilish kombinati,

yogʻ-ekstraksiya zavodi qayta jihozlandi. Qarshi tikuvchilik ishlab chikarish birlashmasiga yangi chet el uskunolari keltirildi. Shahardagi non kombinatiga ham xorijiy uskunalar oʻrnatildi. Usha yillari viloyatda paxtachilik sohasida ham yuksak koʻrsatkichlarga erishildi. Uch yil mobaynida viloyatning yillik umumiy paxta xirmoni qariyb 600 ming tonnaga yetgani ham shundan dalolat beradi.

Islom Karimov Qashqadaryo viloyatida birinchi rahbar boʻlib ishlagan yillarda Qarshi shahri nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki hududiy jihatdan ham oʻsdi va kengaydi. 1987 yilda shaharga tutash 12 ta aholi punkti uning hududiga kiritildi. Usha davrda shaharda jami 271 ming 694 kvadrat-metr uy-joy foydalanishga topshirildi. Shahardagi «Paxtazor» mikrorayoni qurib nihoyasigayetkazildi. Qarshida yangi aholi punktlari - yettinchi va uchinchi mikrorayonlar paydo boʻldi. Kamandi, Zogʻza va Otchopar mahallalarida yangi xususiy uy-joylar qurila boshladi. Shaharda aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan uy-joy hajmi ilgari 10,13 kvadrat-metrni tashkil etgan boʻlsa, bu davrga kelib 12,7 kvadrat-metrga yetdi.

Bu davrda mahalliy boshqaruv tizimida dastlabki oʻzgarishlar yuz berishi nafaqat viloyat, balki butun Oʻzbekiston uchun katta voqea edi. Qarshi shahrida ilk bor oʻzini oʻzi boshqarish organi boʻlmish mahalla koʻmitalari umumiy majlislar orqali saylana boshladi. Islom Karimov viloyat markazining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi bilangina kifoyalanib qolmasdan, shaharning qadimiy tarixi, buyuk siymolari, oʻziga xos qadriyatlari, koʻhna obidalari, muqaddas qadamjolari, madaniyati va sanʼatini har tomonlama chuqur oʻrganish, ularni tiklash va asrab-avaylash masalasiga ham katta eʼtibor qaratdi. Shu maqsadda viloyat markazi va boshqa shaharlardagi arxeologik qazuv ishlarini davom ettirish, bu yerlardagi aholi manzilgohlarining, Qarshi shahrining yoshini aniqlash, meʼmoriy yodgorliklarni taʼmirlash, xalq ogʻzaki ijodi namunalarini oʻrganish va toʻplash ishlarini olimlar, ijodkor va ziyolilar oldiga vazifa qilib qoʻydi. Bu borada Qarshi shahrida boshlangan dastlabki saʼy-harakatlar keyinchalik butun yurtimiz boʻylab keng tus olgani, ushbu masalalar davlat siyosatimizning eng muhim va ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangani bugungi kunda keng jamoatchilik tomonidan tan olingan haqiqat.

Islom Karimovning Qarshi shahar aholisi, ishchi-xizmatchilar, olimlar, jurnalist va ziyolilar bilan uchrashishi, fikr almashishi an'anaga aylanib qolgan edi. Masalan, 1987 yilning o'zida Qarshi davlat pedagogika institutida viloyat rahbari bilan ikki marta uchrashuv o'tkazildi. Bu uchrashuvlarda mazkur ilm dargohidagi o'quv-tarbiyaviy ishlarni yaxshilash, yosh ilmiy xodimlar va o'qituvchilar haqida g'amxo'rlik qilish, ularni sobiq Ittifoqning markaziy shaharlaridagi yetakchi oliy o'quv yurtlariga stajirovkaga, aspirantura va doktoranturaga yuborish, institutning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalari bo'yicha savol-javob va fikr almashuvlar bo'lar, ko'pgina masalalarning yechimi yuzasidan umumiy qarorga kelinar edi. Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng Prezident Islom Karimov Farmoniga binoan bu bilim maskani Qarshi davlat universitetiga aylantirildi.

Bunday e'tibor namunalarini ilm-fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari sohalari bo'yicha qilingan ishlar misolida ham ko'rish mumkin. O'sha paytda viloyat televideniye va radioeshittirish boshqarmasi boshlig'i bo'lib ishlagan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Qurbon Egamberdiyevning xotirlashicha, viloyat teleradiokompaniyasining hozirgi zamonaviy binosini qurish tashabbuskori ham Islom Karimov bo'lgan. Prezidentimizning deyarli har yili Qashqadaryoga tashrif buyurishi, bu yerda mehnat jamoalarida, paxta dalalari, mahalla va o'quv yurtlarida bo'lib, voha ahli bilan samimiy suhbatlashishi, ularning kayfiyati bilan qiziqishi, shaharning muammolari bilan yaqindan tanishib, viloyat markazini yanada obod qilish bo'yicha o'zining zarur maslahatlarini berishi jamoatchiligimizga yaxshi ma'lum.

Ta'kidlash joizki, Qarshining 2700 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash, shu munosabat bilan buyerda ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish tashabbuskori ham aynan Islom Karimovdir. Qarshi shahri bugungi kunga kelib mamlakatimizning sanoati va madaniyati taraqqiy etgan markazlaridan biriga aylandi. Viloyatda Islom Karimov rahbarlik qilgan davrda boshlangan xayrli ishlar va an'analar mustaqillik yillarida yangicha ruh bilan davom ettirilmoqda.

Qarshi shahri istiqlol yillarida har jihatdan rivojlandi, obod va ko'rkam shaharga aylandi. Xalqimizning azaliy fazilatlaridan biri bo'lgan yaratuvchilik, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari istiqlol yillarida butun mamlakatimiz qatori bu shaharda ham yangicha mazmun-mohiyat kasb etmoqda. Shahar iqtisodiyotida chukur tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi kunda Qarshi shahrining maydoni 75,51 kvadrat kilometrni egallaydi. Bu Qashqadaryo viloyati hududining 0,26 foizini tashkil etadi. Shaharda shaharcha tipidagi posyolka va 62 mahalla bor. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida, jumladan, Qarshida sanoat ishlab chiqarishini yangilash va rivojlantirish uchun moddiy-texnik baza barpo etildi, investitsiya dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, yangi korxonalar qurilmoqda, eskilari qayta ixtisoslashtirilmoqda, yangi tarmoqlar shakllantirilmoqda.

Iqtisodiyotda istiqbolli va tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, raqobatga bardoshli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun xorijiy sarmoya ishtirokida qo'shma korxonalar tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Hozirgi vaqtda shaharda 20 ta qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Bu korxonalar 1 milliard 300 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarmoqda. «Mevalar kamalagi» O'zbekiston - Britaniya, «Qarshiyog'» O'zbekiston - Singapur qo'shma korxonalari mahalliy xom ashyoni qayta ishlash yo'li bilan mahsulot ishlab chiqarayotgani va katta foyda olayotgani e'tiborga sazovordir. 1996 yil noyabr oyida Qarshida O'zbekiston - Turkiya trikotaj kompleksi tomonidan trikotaj fabrikasi, bir oydan keyin esa «Kashteks» aksiyadorlik jamiyatining Turkiyaning «Yazteks» korporatsiyasi bilan hamkorlikda qurilgan yirik to'qimachilik kompleksi foydalanishga topshirildi. 1997 yilda Qarshida «Qashkadaryotelekom» Uzbekiston - Indoneziya qo'shma korxonasi ish boshladi.

AQShning «Dresser», «M. Y. Kologg» hamda Yaponiyaning «Nisho Ivai» kompaniyalari ishtirokida qurilgan, 600 atmosfera bosimi ostida ishlaydigan, bir kecha-kunduzda 4,2 million kubometr gaz ishlab chiqaradigan Ko'kdumaloq kompressor santsiyasi ishga tushdi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan bunyod etilgan bu stansiya nafaqat MDH mamlakatlarida, balki butun jahonda

yagona hisoblanadi. «SHo‘rtangaz» majmui ham ana shunday strategik ahamiyatga molik inshootdir. Qarshi mintaqasi foydali qazilma boyliklarning boy zaxirasiga ega. Qarshidan u qadar uzoq bo‘lmagan joyda viloyat sanoati uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy gaz koni aniqlandi. Mamlakatda qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 88 foizi, neftning esa 92 foizi shu yerdan olinadi. Talimarjon GRESi, «Mubarakgaz» kabi yirik korxonalar nafaqat viloyat, balki mamlakatimiz iqtisodiyotining faxri hisoblanadi. Vohada ohaktosh, ganch, qurilish toshi kabi zahiralari boyligi tufayli qurilish industriyasi yaxshi rivojlangan. Ushbu soha sanoat, xo‘jalik, energetika, gidroqurilish obyektlari qurish va ta‘mirlash ishlarini bajarishga ixtisoslashgan. Viloyat iqtisodiyotida temir-beton materiallar, pishiq g‘isht ishlab chiqarish quvvatlarining salmog‘i katta.

Qarshi transport kommunikatsiyalarining rivojlangan tarmog‘iga ega. 1992 yil 17 yanvarda O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan «O‘rta Osiyo temir yo‘lining Qarshi bo‘limini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmonning imzolanishi bu soha rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Umumiy uzunligi 223 kilometrni tashkil etadigan G‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘li to‘liq ishga tushirilgandan keyin vohaning kommunikatsiya sohasidagi imkoniyatlari yanada ortadi. Bugungi Qarshi kompleks turdagi shahar hisoblanadi. Sanoat tarmoqlari tarkibida yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati yetakchi o‘rin tutadi. Paxta tozalash zavodi, yog‘-sut zavodi, tikuv fabrikasi, qurilish materiallari, metallga ishlov beruvchi kombinatlar singari sanoat korxonalari viloyat iqtisodiyotining rivojiga munosib ulush qo‘shib kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil ijtimoiy siyosat asosida Qarshi shahri aholisining ijtimoiy ehtiyojlariga budjet mablag‘larining 40 foizidan ortig‘i yo‘naltirilmoqda. Bunga ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, fan sohalariga, onalar va bolalar, keksa, nogiron va kam ta‘minlangan toifalarga yo‘naltirilayotgan xarajatlar kiradi. Qarshida, umuman Qashkadaryo viloyatida aholini tabiiy gaz va toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Agar 1991 yilda aholini tabiiy gaz bilan ta‘minlash darajasi viloyatda 25,4 foizni,

toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 53 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 72,9 va 80,8 foizga yetdi.

Bugun shaharda 556 ta yirik korxona, 44 ta hissadorlik jamiyati, 761 ta maishiy xizmat ko'rsatish, ko'plab savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shaharda 3 ta oliy o'quv yurti, 3 ta zamonaviy akademik litsey, 16 ta kasb-hunar kolleji mavjud bo'lib, 33 nafar fan doktori, 300 dan ortiq fan nomzodi o'quvchi va talabalarga saboq bermoqda. Aholiga 52 ta umumta'lim maktabi, 2 ta muzey, 2 ta istirohat bog'i, 4 ta teatr, 1 ta filarmoniya, 13 ta ommaviy kutubxona xizmat ko'rsatmoqda. Tibbiy xizmat ko'rsatish sifatiga alohida e'tibor berilmoqda. Shaharda Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazining 270 o'rinli filiali, «Ona va bola skriningi» markazi, Akusherlik va ginekologiya ilmiy-tekshirish institutining filiali, Respublika «Salomatlik» instituti filiali kabi 22 ta shifoxona faoliyat ko'rsatmoqda. Keyingi yillarda Qarshi shahrida 30 ming kvadrat metrdan ortiq uy-joy, Olimpiya zaxiralari sport kolleji, 20 ming o'rinli zamonaviy stadion, 1200 o'rinli sport maneji, yopiq suv basseyni kurib foydalanishga topshirildi. Qarshi shahrida 2 ta telestudiya, 2 ta radiostansiya, 15 ta gazeta, 1 ta jurnal tahririyati, Toshkent Davlat axborot texnologiyalari universitetining filiali, 2 ta axborot texnologiyalari kolleji faoliyat yuritmoqda. Qarshi Davlat universitetida, Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutida oliy o'quv yurtlari bilan masofadan o'qitish texnologiyalari joriy etilgan, ba'zi bir oliy o'quv yurtlarining kutubxonalari bilan elektron aloqa o'rnatilgan. Viloyat o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ham masofadan o'qitish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, ko'plab maktablar internet tarmog'iga ulangan bo'lib, o'quvchilar bimalol dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lishi, o'z veb-saytlarini ochib, chet ellik tengdoshlari bilan aloqa o'rnatishi mumkin. Shaharda o'nlab internet-kafelar ishlab turibdi.

Shaharda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, bozor iqtisodiyotining zarur infratuzilmasini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ularga 15 ta bank, 9 ta sug'urta kompaniyasi, 5 ta axborot-konsalting markazi, savdo-sanoat palatasi, Respublika fond va ko'chmas mulk birjalari filiallari, biznes-fond, biznes inkubator

va boshqa tuzilmalar xizmat ko'rsatmoqda. Banklar tomonidan tadbirkorlarga katta miqdorda imtiyozli kreditlar ajratilyapti. Ularning davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng yo'l ochib berilgani tufayli bu sohada keyingi yillarda ulkan o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Ishbilarmonlar o'z korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlab, sifatli, xaridorgir tovarlar ishlab chiqarmoqda. Ular tomonidan chet davlatlarga eksport kilinayotgan mahsulotlar hajmi ortib bormoqda. Qarshi jahonning qadimiy shaharlaridan biridir. U dunyo tarixi va madaniyatida alohida o'rin tutadi. Bu haqiqat Qarshi shahrining 2700 yilligi tantanalarida ishtirok etish hakida qaror qabul qilgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 32-sessiyasida qayd etildi. Bu qutlug' sana munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov maxsus qarorga imzo chekdi. Davlatimiz rahbarining g'amxo'rligi bilan qadimiy Qarshi shahri yanada yasharib ketdi. Buyerda tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va tiklash, Qarshining tarixiy-me'moriy qiyofasini saqlab qolish, uni rivojlangan zamonaviy shaharga aylantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Keyingi yillarda buyerda ko'plab me'moriy yodgorliklar, jumladan, o'n beshinchi asrda qurilgan Ko'kgumbaz, Xoja Ubayd Jarroh masjidlari, Qarshi ko'prigi, Abdulaziz, Bekmir madrasalari kabi ko'plab me'moriy obidalar qayta ta'mirlandi. Mustaqillik yillarida shu zamindan yetishib chiqqan, eski tuzum davrida muborak nomlari tilga ham olinmagan buyuk allomalarimizning xotirasini tiklash, ularning hayoti va faoliyati bilan bog'liq tabarruk joylarni obod etish, ma'naviy merosini chuqur o'rganish borasida ham ibratli ishlar kilinmoqda. Respublikada birinchilardan bo'lib Qarshi shahrida joriy etilgan mahalla tizimida yangicha ish yuritish uslubi o'ziga xos yangilik bo'ldi. Tinchlik, osoyishtalikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlashda bu boshqaruv usulining afzalliklari nihoyatda ulkan ekani tajribada o'z isbotini topdi. Yosh avlodning zamonaviy bilimlarni egallab, ma'nan va jismonan sog'lom bo'lib o'sishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Qarshilik yoshlar Osiyo va jahon sport maydonlarida o'zlarini ko'rsatib, mamlakatimiz sharafigi munosib himoya qilmoqda. Birgina 2006 yilning o'zida maktab o'quvchilarining «Umid nihollari» sport musobaqalarining

Respublika final bosqichi, Ikkinchi respublika ayollar spartakiadasi, o'nga yaqin sport turlari bo'yicha respublika musobakalari Qarshi shahrida bo'lib o'tdi.

Shunday qilib, mustaqillik yillari qadimiy Qarshi shahri uchun tom ma'noda qayta tiklanish va qurilish davri, milliy o'zlikni anglash, asriy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni zamon talablari asosida rivojlantirish davri bo'lib qoldi. Haqiqatan ham, mustaqillik qadimiy Qarshiga iqtisodiyot va madaniyatni yuksaltirish, xalq farovonligini oshirishning yangi istiqbollarini ochib berdi. Qarshi tarixi haqidagi bilim va ma'lumotlar, tarixiy dalillar uzoq yillar mobaynida to'plangan. Ularning aksariyati qadimiy Sharq manbalariga, XIX-XX asr boshlaridagi sayyohlarning ma'lumotlariga asoslangan. XX asrning 40-yillari oxirlaridan boshlab Qarshi vohasida olib borilgan keng miqyosli arxeologik tadqiqotlar bu shaharning qadimiy va ilk o'rta asrlar tarixi, madaniyatini butunlay yangicha yoritish, uning shakllanish va rivojlanish tadrijini kuzatish imkonini berdi. Dastlab so'g'd tamaddunining asosiy markazlaridan biri bo'lgan, so'ng o'rta asrlar sivilizatsiyasi davrida o'z alloma va fiqh olimlari bilan shuhrat qozongan madaniy o'choqlardan biri bo'lmish Qarshi shahri ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi hamda mustaqillik davriga kelib zamonaviy obod shaharga, O'zbekiston gaz va neft sanoati markazlaridan biriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Баҳр ал-калом таълиф Маймун бин Муҳаммад ан-Насафий аш-шаҳийр би-Абул Муъийн ан-Насафий, Дамашқ, Дор ал-Фарфур, 1997

2. Улрих Рудольф. Ал-Мотуридий ва Самарқанд сунний ликилоҳияти, Тошкент, 2001, 47-бет

3. Иброҳим Холиёров, Шохмурод Шароф, Ҳазратимом Муъийнзиёратгоҳи, Тошкент, «Янги асравлоди», 0-15 бетлар

4. У. Уватов, Абул Муъийн ан-Насафий ва унинг асарлари. Имом ал-Бухорий сабоқлари журнали, 2001 йил, 3-сон, 218-бет

